

# “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy madaniyat, adabiyot kunlari” ilmiy-badiiy tadbir o`tkazildi

Bugun, 2-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida O'zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston-Ozarbayjon Do'stlik jamiyati, O'zbekistonning Turon kutubxonasi va Turon akademiyasi hamkorligida “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy madaniyat, adabiyot kunlari” o'tkazildi.



Tadbir doirasida Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy qo'lyozma asarlari ko'rgazmasi hamda nashrlari taqdimoti tashkil qilindi.





Tadbirning ochilish marosimida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beriniy nomidagi Sharqshunoslik instituti direktori, professor Bahrom Abduhalimov, O'zbekistondagi Ozarbayjon Madaniyat markazi direktori, faxriy madaniyat xodimi Samir Abbosov, Ozarbayjon Madaniyat vazirligi rasmiysi, bo'lim boshlig'i Akif Marifli, Ozarbayjondagi Otaturk markazi direktori, Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi akademigi Nizamiy Jafarov nutq so'zladi.

Shuningdek, tadbirga tashrif buyurgan olimlar o'zlarining ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

Bundan tashqari, tadbir davomida O'zR FA Sharqshunoslik instituti va Ozarbayjon Madaniyat markazi hamkorligida tayyorlangan nashr taqdimoti ham bo'ldi. Taqdimotni filologiya fanlari nomzodi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi Salimaxon Eshonova o'tkazdi.